

2-TOM, 11-SON
ALOE O'SIMLIGI

ALIYOROVA S.N., RO'ZIYEVA G.T.

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tibbiyot fakulteti tabiiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi

Davolash ishi yo'nalishi 24-15-guruh talabasi

ANNOTATSIYA. Hozirgi vaqtga kelib inson salomatligini yaxshilashda zararsiz bo'lgan aloe kabi dorivor o'simliklarga bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Dorivor o'simliklarni faqatgina tibbiyotda to'g'ri qo'llay olishimiz lozim. Agar biz dorivor o'simlikni tibbiyotda qo'llay olsak, insonlarni zarar beruvchi dorilardan asragan bo'lamiz. Aloe o'simligi ham dorivor o'simlik sirasiga kirib qadimda tibbiyotda qo'llanilib kelgan va hozir ham tibbiyotning keng sohalarida qo'llanilmoqda. Ushbu maqola dorivor xususiyati kuchli bo'lgan tabobatda keng qo'llaniladigan va juda ham foydali bo'lgan aloe o'simligining ahamiyati va tibbiyotda qo'llanishi to'g'risida so'z yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR: Aloe o'simligi, Aloe dorivor o'simlik, tabobatda qo'llanishi, organik kislotalar.

Annotation. Nowadays, the demand for medicinal plants like aloe, which are harmless and beneficial for human health, is steadily increasing. We must use medicinal plants correctly in medicine. If we can apply medicinal plants in medicine, we will protect people from harmful drugs. The aloe plant is also classified as a medicinal plant; it has been used in medicine since ancient times and continues to be applied in various fields of medicine today.

АННОТАЦИЯ. В настоящее время спрос на лекарственные растения, такие как алоэ, которые безопасны и полезны для здоровья человека, неуклонно растет. Нам необходимо правильно применять лекарственные растения в медицине. Если мы сможем использовать лекарственные растения в медицине, мы защитим людей от вредных лекарств. Растение алоэ также относится к категории лекарственных



2-TOM, 11-SON

растений; оно использовалось в медицине с древних времен и продолжает применяться в различных областях медицины сегодня.

KIRISH: Aloe o'simligi lolaguldoshlar oilasiga mansub bo'lib, doim yashil daraxtsimon o'to'simlik. Aloe vera dorivor o'simlik hisoblanib u antibakterial, yallig'lanishga qarshi va yara bitirish xususiyatlari bilan mashxur. Uning sharbatida organizmga foydali bo'lgan fermentlar, vitaminlar, minerallar va aminokislotalar mavjud. Aloeni yara, kuyish va teri muammolarini davolashda, immunitetni kuchaytirishda, ichki yallig'lanishlarni kamaytirishda qo'llashadi. Shu sababli, aloedan tayyorlangan mahsulotlar halq tabobatida, balki zamonaviy tibbiyotda ham keng qo'llaniladi.

Aloe o'simligining vatani Afrikaning janubi sharqi hisoblanadi. Aloening tarkibida organing kislotalar, karotinlar, fermentlar, efir moylar mineral tuzlar, mikroelementlar, Ca, Mg, Cr, Zn, Na, lignin polisaxarid kabi moddalar mavjud. Aloe tibbiyotda deyarli barcha sohalarida qo'llaniladi. Uning xususiyatlari dermatologiyada, genekologiyada, oftalmologiyada qo'llaniladi.

Aloe vera o'simligi xam barcha turlar orasida shifobaxsh dorivor o'simlik hisoblanadi. Aloe veraning vatani Shimoliy Afrika, Kanar orollari va O'rta yer dengizi sohilidagi mamlakatlar hisoblanadi. Dunyoda aloe veraning 200 dan ortiq turlari mavjud. Tabiiy antibiotik hisoblanadi. Uning tarkibida vitaminlar A, C, E, B guruhlari mavjud. Aloe o'simligi vatanida 4 metrgacha yetadigan doimiy yashil daraxtsimon o'simlikdir. Bizda ikki turi o'sadi: daraxtsimon aloe va yo'l-yo'l aloe. Tibbiyotda aloe bargaining quritilgan shirasi sabur va boshqa preparatlari ishlatiladi. Aloe barglari va sabur tarkibida antrosen xosilalari, smolalar, efir moyi, achchiq va boshqa moddalar bor. Saburning katta dozasi ovqat xazm qilishni yaxshilash va ishtaxa ochish maqsadida ichiladi. Biogen stimulyatorlarga boy barglaridan suyuq ekstrakt (flakon va ampulalarda chiqariladi), liniment (emulsiya), shira sharbat va tabletka tayyorlanadi. Aloening suyuq ekstrakti va tabletkasi ko'z kasalliklarida xamda boshqa kasalliklarda (meda, o'n ikki barmoqli ichak, bronxial astmada) ishlatiladi. Aloe linimenti va shirasi kuyganga, turli yaralarga, quruq va xo'l



2-TOM, 11-SON

epidermitlarga „nur terapiyasi natijasida 2-va3-darjali kuyganlarga ishlatiladi. Shirasi gastrit, enterokolit va qabziyatda ishlatiladi. Aloe qaynatmasi xam insonlarni dartlariga shifo bo'ladi. Asal bilan qo'shilgan aralashmasi urishdan qolgan izlarni bitiradi, yaralangan milkn tuzatadi. Sharobga qo'shib to'kiladigan sochlarga surtilsa to'xtaydi. Bitishi qiyin yaralarga, burun va og'iz yaralariga hamda oqma yaralarga foyda qiladi. Bo'g'in og'riqlariga asal qo'shib qaynatib ,3 maxal 2 osh qoshiqdan ichiladi. Ko'z yarasi, qo'tir ichi kuyishib og'riganda tuzatadi. Iliq suv bilan ichilsa ichni suradi.

Muhokama: Dermatologiya: Aloe teriga juda foydali bo'lib, kuyishlar, yara va toshmalarni davolashda ishlatiladi. Uning sovituvchi va yangilovchi xususiyatlari terining yallig'lanishini kamaytiradi va tiklanishini tezlashtiradi.



Gastroenterologiya: Aloe sharbati ichak faoliyatini yaxshilaydi, ich qotishini oldini olishda va oshqozon-ichak muammolarida yordam beradi. Shuningdek u oshqozonning kislotaligini pasaytirishga yordam berishi mumkun.

Immunologiya: Aloe organizmning immun tizimini kuchaytiruvchi moddalarga ega. Bu xususiyatlar uni shamollash va gripp kabi kasalliklardan himoya qilishda qo'llashga imkon beradi.



2-TOM, 11-SON

Oftalmologiya: Aloe ko'z infeksiyalari va ko'zdagi yallig'lanishlarni davolash uchun ishlatiladi. Ko'pincha ko'z tomchilari yoki kompresslar tarkibiga kiritiladi.

Kosmetologiya. Aloe tizimi namlantiruvchi va yoshartiruvchi xususiyatlarga ega bo'lib, yuz uchun niqoblar tarkibiga kiritiladi.



Gomeopatiya xalq tabobati: Aloe turli kasalliklarni oldini olishda va davolashda, xalq tabobatida keng qo'llaniladi. Aloe sharbati immunitetni kuchaytirishga, organizmdagi toksinlarni chiqarishga va umumiy sog'likni yaxshilashga yordam beradi.

Tibbiyotda Aloe foydalanishining keng qamrovi uning ko'p qirraligini va turli kasalliklarda foydali ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun u ko'plab davolash usullarida asosiy tarkibiy qism sifatida ishlatiladi.

XULOSA: Ushbu maqolaga xulosa qilib shuni aytishim mumkinki aloe 1-navbatda manzarali, chiroyli o'simlik hamda tibbiyotda juda keng tarqalgan. Uning har bir turi shifobaxsh. Bu o'simliklarning dorivorligidan to'g'ri foydalanish va ularni toza saqlab salomatligimiz yo'lida foydalansak albatta shifo topamiz. Biz bunday dorivor o'simliklarni ko'paytirishni maqsad qilib qo'yishimiz zarur.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Милаханова С.А, Ю.А.Дударь «Выращивание и использование целебных растений» Нальчик 1990.
 2. Курмуков А.Г, Белолипов И.В. Дикорастущие лекарственные растения Узбекистана. Монография. Ташкент. 2012. - С.
 3. Alimova R.A., Sagdiev M.T. O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi. Qo'llanma. Toshkent. 2013.
 4. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yulchiyeva, D.Mustafakulov. Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi va ekologiya «tafakkur-bo'stoni» nashriyoti Toshkent - 2018
- INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
5. Saminov, A., D. Ismoiljonova, and M. Rahmataliyeva. "Dorivor sut qushqo'nmas osimligining foydali xususiyatlari va undan oqilona foyalanish." Science and innovation 1.D4 (2022): 155-159.
 6. Anvarjonovich D. Q., O'g'li S. A. A., O'g'li X. The importance of fungicides and stimulants in preparing seed grains //Asian journal of multidimensional research. -2021. - T. 10. - №. 4. - С. 415-419.

